



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3



2025-YIL APREL. NAVBATDAN TASHQARI SON



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 625 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ПРИНЦИПЫ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ, СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	12
Набиев Дилмурод Хамидуллаевич	
YaShIL TEXNOLOGIYALAR VA RAQAMLASH TIRISH TA'SIRIDA MEHNAT BOZORINING TRANSFORMASIYASI	19
Abduraxmanov Kalandar Xo'jaevich	
РОЛЬ ТВОРЧЕСКОГО ТРУДА В ПОВЫШЕНИИ ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТИ	26
Гулямов Саидахор Саидахмедович, Икрамов Мурат Акрамович, Очилов Акрам Одилович	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH MAQSADIDA "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH ZARURATI	33
O.X. Hamidov, D.Sh. Yavmutov	
ESG-ИНСТРУМЕНТАРИЙ КАК ФАКТОР УСИЛЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ	38
Татьяна Юрьевна Анопченко, Сергей Вадимович Ревунов, Роман Вадимович Ревунов	
TRANSITION OF RUSSIAN REGIONS TO A CLOSED-LOOP ECONOMY	49
Nikonov Sergey Mikhailovich, Ochilov Akram Odilovich, Filipenko Alexander Alexandrovich	
"YASHIL" IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TUZILISHI	53
Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА КАК ДРАЙВЕР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЫНКА ТРУДА И МОДЕРНИЗАЦИИ РАБОЧИХ МЕСТ В УЗБЕКИСТАНЕ	59
Зокирова Нодира Каландаровна	
KREATIV IQTISODIYOT VA UNING INDUSTRIYA TURLARINING NAZARIY MASALALARI	64
Mamayunus Pardaev, Obid Pardaev, Akram Ochilov	
EKOLOGIK OMILLARNI HISOBGA OLGAN HOLDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHDA ERISHISH	73
Saidov Muhammadali Hakimovich, Ochilov Akram Odilovich, Esanbekov Diyorbek Mirzabek o'g'li	
INNOVATION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI KOOPERASIYASINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	81
Raxmatulla Ergashev	
KARTOSHKA MOSLANUVCHAN NAVLARI TURLI EKISH MUDDATLARI VA MULCHALASHLARDA HOSILDORLIGI HAMDA IQTISODIY SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	86
Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich, Toshpulatova Surayyo Tulqin qizi, Ismayilov Alisher Isroilovich	
YASHIL IQTISODIYOT – INNOVATSION RIVOJLANISHNING KALITI	90
Mirzayev Kulmamat Djanakovich, Usmonov Murodjon Dusmurot o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ» В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	93
Сайёра Насимовна Хамраева	
SABZAVOT (SHIRIN) MAKKAJO'XORI AJRATILGAN MOSLANUVCHAN NAV-DURAGAYLARINI ASOSIY VA TAKRORIY EKINLAR SIFATIDA TURLI MUDDATLARDA YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	97
Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich, Nurillaev Ilhom Xolbek o'g'li, Jabborov Botir Shukurovich	
ZAMONAVIY BOZOR MUNOSABATLARIDA SAVDONI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	101
Ivatov Irisbek	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	105
Yadgarov Akram Akbarovich, Abdiyeva Flora Botir qizi	
GREEN ECONOMY: GLOBAL PERSPECTIVE AND UZBEKISTAN'S PATH	110
Dilmurod Mirza-Akhmedovich Rasulev, Dildorakhon Ulugbek kizi Shomuradova	



OLIV TA'LIM XIZMATLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TARG'IB QILISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI	113
Musayev Bekjon Shukurillayevich	
TURIZM INDUSTRIYASINI BARQAROR STRATEGIK RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR TAHLILI	116
Turdibekov Xasan Ibragimovich	
ЗЕЛЁНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ФАКТОРЫ ЕГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	120
Орипов Ильхом Абдуллаевич	
Перспективы развития цифровой трансформации в Республике Узбекистан	128
Мусабеков Джорабек Хакимджанович, Воронин Сергей Александрович	
YASHIL IQTISODIYOT – BARQAROR RIVOJLANISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	133
G.Erkayeva	
Barqaror ish o'rinlarini yaratishda yashil iqtisodiyotning o'rni	138
Qo'chqorov G'aybulla Fayzullayevich, Qo'ziyeva Shaxnoza Bozor qizi	
ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ	141
Фазлитдин Бахадирович Аминов	
RESPUBLIKADA EKOLOGIK TOZA MAHSULOT YETISHTIRISH ASOSIDA ELEKTRON SAVDONI RIVOJLANTIRISH	145
Q. J. Mirzayev, F. F. Ulug'murodov	
Qoraqalpog'istonda sanoatni restruktizatsiyalash va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish: muammolar, istiqbollar va statistik tahlillar	150
Abipova Gulmira Salavatdinovna	
CHORVACHILIK XO'JALIKLARINI RIVOJLANTIRISHDA AGLOMERATSIYANING AHAMIYATI.....	153
Xusainov Oybek Jabborovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASINING KOMPANIYA UCHUN AHAMIYATI.....	156
Ergashev Toxir Kurbanovich, Toxirova Nigora Zokirjon qizi	
CHORVACHILIK KLASSTERLARI VA AGLOMERATSION RIVOJLANISH: O'ZARO TA'SIR VA SYNERGIYALAR	161
Xusainov Oybek Jabborovich	
HUDUDLARNING INNOVATSIYON SALOHİYATINI BAHOLASH	165
J.A. Ismatullayev, A. Do'lanov	
СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	171
Нафасов Тохиржон, Г. П. Эркаева	
Mamlakatimizda ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan islohotlar.....	174
Djurayev Olimjon Narkulovich	
USE OF THE ADVANCED EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES OF FARMING AND HOUSEHOLDS	178
Ochilova Nargiza Akramovna	
SHAHAR AGLOMERATSIYALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	181
Xidoyatova Nigora Shorakibovna	
IQTISODIY O'SISHDA MEHNAT MIGRATSIYASINING AHAMIYATI.....	184
Djurayev Olimjon Narkulovich, Saidakbarov Jamshid Ne'matullo o'g'li	
TURIZMNIDA RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	189
Qosimov Jahongir 189	
РЫНОК ГОСТИНИЧНЫХ УСЛУГ В ТУРИЗМЕ В УСЛОВИЯХ ДИВЕРСИФИКАЦИИ И ДЕМОКРАТИЗАЦИИ ГОСТИНИЧНОЙ ИНДУСТРИИ	192
Ташмаматов Садирдин Нажмиддинович	



O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN KADRLAR MALAKASINI OSHIRISHDA DUAL TA'LIMDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISH.....	196
Ochilov Akram Odilovich, Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AUTSORSING XIZMATLARIDAN FOYDALANISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	201
Nasiba Ergasheva	
KORXONALARDA XODIMLARNI BOSHQARISHNING ASOSIY TAMOYILLARI	207
Djurayev Olimjon Narkulovich, Nurullayeva Vazira O'ktamovna	
ЗЕЛЁНЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ПЕРСПЕКТИВЫ И РИСКИ	211
Номазов Бахром Бобомуратович	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ESG В ФИНАНСОВУЮ СФЕРУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	215
Алимова Азиза Шерзатовна	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON MANAGEMENT	219
Ergashev Tokhir Kurbanovich, Tohirova Nigora Zokirjon kizi	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT STRATEGIYASI" NI AMALGA OSHIRISHNING ZARURIYATI VA ISTIQBOLLARI	224
Ergasheva Nazira Muratovna, Soyibov Mirjon Bekjonovich	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УСЛУГ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ, ВЛИЯЮЩИХ НА ПОВЫШЕНИЕ УРОВНЯ И КАЧЕСТВА ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ	227
Алимова Муниса Юлчиевна	
РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЗНАЧИМОСТИ.....	232
Расулов Нозимжон Набиджонович	
AGLOMERATSIYA VA IQTISODIY O'SISH: SABAB-OQIBAT ALOQASI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	236
Xidoyatova Nigora Shorakibovna	
KORXONALARNING SOLIQ IDORALARIDA HISOBGA OLINISHIDAN HOSIL BO'LGAN ORTIQCHA TO'LOVLARINI BOJXONA TO'LOVLARIDA HISOBGA OLISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	239
Boykabilov Bahodir Mustafaevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARGA INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI	242
Egamberdiyeva Salima Rayimovna, Bozorov Yashnarbek Xayrulla o'g'li	
ORGANIK QISHLOQ XO'JALIGIDA "IXTISOSLASHTIRILGAN AGROKOOPERATIV" TASHKIL ETISH ORQALI TA'MINOT ZANJIRI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	248
Amirqulov Shuxrat Olimovich	
MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIVAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHI UCHUN ZAMONAVIY HUQUQIY ASOSLARI.....	254
Xayriddinov Shuxrat Botirovich	
TURIZMNING MADANIY-TARIXIY RESURLARI: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TAMOYILLAR	258
Ruzmanov Dilshod Usmanovich	
BARQAROR TURIZM DESTINATSIYALARINING SIG'IMINI VAHOLASH METODIKASI.....	262
Ibroximov Nodirbek Xasanovich	
ВОЗОБНОВЛЯЕМЫЕ ИСТОЧНИКИ ЭНЕРГИИ КАК ОСНОВА ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	266
Хусаинов Равшан Рахимович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ МАРКЕТИНГ И ПОВЕДЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ.....	272
Раимова Муборак Джураевна	
"YASHIL IQTISODIYOT" NING ASOSIY XUSUSIYATLARI	276
Djumayev Asqar Xaydarovich	



RAQAMLI MARKETINGNING ISTE'MOLCHI XULQ-ATVORIGA TA'SIRI.....	281
Raimova Muborak Jurayevna, Dilmurodov O'tkir	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	287
SH.A. Buriyev	
SAVDO XIZMATLARINING ASOSIY FAOLIYAT KO'RSATKICHLARI TIZIMINI BAHOLASH.....	291
Muxamedova Aziza Ravshanovna	
YASHIL IQTISODIYOT VA GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI: YASHIL IQTISODIYOTNING IQLIM O'ZGARISHINI YENGISHDAGI O'RNI VA GLOBAL HAMKORLIK.....	295
Usmonov Murodjon Xolmurod o'g'li, Ulug'bek Eshmaxmatov	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕХАНИЗМА НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	299
Абдулов Дамир Рустамович	
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ISTIQBOLLARI	305
Yuldashev Shamsiddin Qiyamiddinovich, Boliyeva Baxora Farxodovna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА: КОНЦЕПЦИИ, ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	308
Туляганова Шахноза Самукджановна	
О'ТА ERTAGI TARVUZNING HIMOYALANGAN JOYLAR UCHUN MOSLANUVCHAN NAV VA DURAGAYLARINI AJRATISH, ULARNI TURLI O'G'IT ME'YORLARIDA HOSILDORLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	311
Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich, Amirov Xamidulla Suyunovich, Umirova Durdona Muqum qizi	
ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПЛОДООВОЩНОЙ ОТРАСЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ	315
Уралов Элшод, Вельм М.В.	
DEVELOPMENT STRATEGY AS A MODEL OF PROGRESS IN HUMAN RESOURCE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....	320
Abdiev Alimardon	
ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕКТОРА ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ И РАЗВИТИЯ КАДРОВОГО ПОТЕНЦИАЛА.....	322
Мухаммадбобур Салимов	
КИЧИК BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	326
Suyunov Jabbor Mahmudovich	
“SALOHIIYAT” TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA IQTISODIY-IJTIMOIIY MOHIYATI.....	331
Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	334
Salimov Muhammadbobur Qodir o'g'li	
O'QUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	337
Tilakov Sherzod	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAMOYILLARI ASOSIDA BOSHQARUV SIFATINI OSHIRISHDA YASHIL IQTISODIYOTNING AHAMIYATI.....	340
Sattarov Umirzoq, Ro'ziev Zafar Ikromovich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT XOM ASHYOLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH TENDENSIYALARI.....	343
Xazratov Sarvar Ibragimovich	
YURTIMIZDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIIY TENDENSIYALARI	348
G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, O'rinov Diyorbek Xolmo'min o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATI O'QUV MARKAZLARI VA KURSLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	353
Tilakov Sherzod Akbarovich	



SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH VA SOTISH SIFATI HAMDA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNI BOSHQARISH YO'NALISHLARI.....	357
Ochilov Akram Odilovich, Ziyodullayeva Marjona Alisher qizi	
OMMAVIY TADBIRLAR YORDAMIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON VA XALQARO TAJRIBA.....	360
Ibragimov Sardorbek Xusanovich	
Анализ цифровой трансформации и её влияния на привлечение инвестиций в регионы Узбекистана.....	365
Рахмонова Дурдона Хасан кизи	
Korxonada moliyaviy salohiyatini baholashning statistik tahlili.....	370
M.O. Musurmonova	
DIRECTIONS FOR IMPROVING THE FINANCIAL MANAGEMENT SYSTEM OF THE BANKING SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	377
Kadirov Lutfulla Khalimovich	
PROBLEMS OF EMPLOYMENT IN THE LABOR MARKET OF UZBEKISTAN AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR THEIR SOLUTION.....	381
Sharopov Temirmalik Rustam o'g'li	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOYILLARI ORQALI QASHQADARYO VILOYATI SANOAT KOMPLEKSINI TAKOMILLASHTIRISH	385
U.Shukurov	
FOREIGN EXPERIENCES IN ATTRACTING INVESTMENTS IN SERVICE INDUSTRIES	390
Hazratkulov Shahboz Boboqul ogli	
YASHIL IQTISODIYOTDA TA'LIMNING ROLI.....	394
Babayeva Lola Ibragimovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI UCHUN DAVLAT TOMONIDAN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR.....	398
Xudoyorov Azizbek Avaz o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI YAXSHILASHNING XORIY TAJRIBASI.....	404
Safarov Sh. S.	
IJTIMOYIY MENEJMENTDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: XALQARO TAJRIBA VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	408
G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, Davronova Farangiz	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ: КАЗНАЧЕЙСКИЙ КОНТРОЛЬ В БЮДЖЕТНОМ ПРОЦЕССЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО РАЗВИТИЯ».....	415
Файзуллаева Зилола Равшановна, Д.Х. Пулатов	
YANGI O'ZBEKISTONDA YASHIL RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING ASOSIY JIHATLARI.....	421
Urozoza Shaxlo Hasan qizi, Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	427
Safarov Shoxrux Sattor o'g'li	
PROSPECTS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF HUMAN RESOURCES IN UZBEKISTAN.....	431
Alimardonova Gulfizoda Alimardon kizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA KAPITAL QO'YILMALAR HISOBINI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....	434
Egamberdiyeva Salima Rayimovna	
QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA ISTIQBOLLARI.....	441
Berdimurodova Farzona Bahodir qizi, Sh. Xolliyev	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES VA IQTISODIYOTDAGI ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	446
Davronova Farangiz Ilhom qizi	



ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA PUL VA BANK TIZIMLARINI TASHKIL ETISHNING ISTIQBOLLARI HAMDA AHAMIYATI	452
Axtamova Ozoda Ulug'bek qizi, Cho'liyeva Gulsanam Yulchi qizi, G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI: TARKIBIY O'ZGARISHLARNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	460
N. Qo'ziboyeva	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI TARKIBIY O'ZGARISHLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI.....	466
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZM KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY INTEGRATSIYA.....	470
Xushvaqto'v Ramziddin	
ILMIY SALOHİYAT VA OLIY TA'LIM SIFATINING UZVIY BOG'LIQLIGI: TAHLIL VA TAVSIYALAR	476
Muratov A'zam Alisher o'g'li, Ochilov Akram Odilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: GREEN CREDIT.....	480
Eshtemirova Ma'rifat Akram qizi, Kabilova Shaxnoza Jurayevna	
DEHQON XO'JALIGI MAHSULOTLARI NARXLARINING DINAMIKASI VA BOZOR MUVOZANATI MODELLARINI QO'RISH.	483
Ergashov Yashnarbek Istamovich	
The Role of Renewable Energy in the Green Economy.....	488
Khudoyberdiyeva Olima, Yakhshikulova Mokhinur	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish: asosiy muammolar va imkoniyatlar	494
Jumanazarov Asilbek Utkirbek o'g'li, Ulug'bek Eshmaxmatov	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBAT USTUNLIGI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASH OMILLARI	498
Ro'ziqulov Jamshid Ulug'bek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH SIYOSATINING ZAMONAVIY TRENDLARI HAMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	504
Shodiyev Jahongir 504	
YASHIL IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	509
Babayeva Lola Ibragimovna, Sh. S. Sa'dullayev	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA MAHSULOTLAR INTENSIV RIVOJLANISHINI TA'MINLASH JARAYONLARI	512
Saburov Jumanazar Salievich	
SUG'URTA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI VA MEXANIZMLARI.....	516
E.Sobirov	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O'TISH ORQALI TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA IQTISODIY FAOLIYATNING ATROF-MUHITGA SALBIY TA'SIRINI KAMAYTIRISH	520
Xo'janova Gulshoda Otamurodovna	
QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	526
Dilafuz Taylakova	
KORXONALARDA EKOLOGIK INVESTITSION LOYIHALARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI TAHLILI.....	532
Ulashov Aliboy Rashid o'g'li	
YURTIMIZDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK VA MOLIYAVIY TIZIMLAR UCHUN YANGI IMKONIYATLAR TAHLILI HAMDA KELGUSIDAGI ISTIQBOLLARI	538
G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, Alarov Asilbek Oybek o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK BARQARORLIGI VA EKOLOGIK IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH MASALALARI.....	545
O'rinov Diyor, Xolliyev Sh.B.	



YASHIL IQTISODOYOT VA UNDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR.....	549
Ermuminov Elbek Erkin o'g'li, Ilmiy rahbar: Yaxshiqulova Moxinur Toxir qizi	
XIZMATLAR SOHASIDA KADRLARNING TUTGAN O'RNI	553
Turayeva Nargiza Rustamovna	
IQTISODIYOTDA TARKIBIY O'ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	557
G.P.Erkayeva, N.H.Qo'ziboyeva	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING AHAMIYATI VA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI	560
Samadova Jasmina Sherali qizi, Sh. Xolliyev	
"YASHIL" ENERGETIKA VA "YASHIL" IQTISODIYOT.....	564
Qarshiyeva Dilsora Ismoil qizi, Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li	
MAMLAKAT BUDJETINING SHAKLLANISHI VA DAROMADLAR TAQSIMOTINING IQTISODIYOTDAGI ROLI	569
Ashirqulova Sevinch Sarvar qizi, Sh. Xolliyev	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	574
Urozoova Shahlo Hasan qizi, Rahmonova Tillaoy Malik qizi	
"YASHIL" IQTISODIYOT INNOVATSION RIVOJLANISHINING KO'RSATGICHLARI.....	579
Mirzayev Kulmamat Djanakovich, Usmonov Murodjon Dusmurot o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	583
Mirzayev Qulmamat Djonuzoqovich, Mirzayev Azzamjon Jonuzokovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	588
Mirzayev Qulmamat Djonuzoqovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna	
СТРАТЕГИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНА: РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО КАПИТАЛА В ЭПОХУ НООНОМИКИ.....	593
Чекулаева Кристина	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	599
Чекулаева Кристина	
YASHIL IQTISODIYOT – MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI.....	605
Oybek Hamdamov, Qosimov Jahongir	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALI SIFATINI OSHIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI	608
M.Ostanova, Ro'ziyev Ramshid	
MODERN LEGAL BASIS FOR THE EFFICIENT USE OF FINANCIAL RESOURCES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN OUR COUNTRY	613
Ismoilova Gulrux, Khayriddinov Shukhrat Botirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA TABIIY - IQTISODIY MANBAALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY MEXANIZMI	617
Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li, Mavlonova Surayyo Xasan qizi	
YANGI O'ZBEKISTONDA SOHALARNI RAQAMLASHTIRISH SAMARADORLIGI	621
Gulrux Arslon qizi Ismoilova	



BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH MAQSADIDA “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH ZARURATI

O.X. Hamidov

Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.Sh. Yavmutov

Buxoro davlat universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va jahondagi dolzarb ekologik muammolar fonida yashil iqtisodiyotga o‘tish zarurati tahlil qilingan. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi – atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ijtimoiy adolatni ta‘minlash orqali barqaror rivojlanishga erishishdan iborat ekani asoslab beriladi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston energetika tarmog‘ining energiyatalabligi, uglevodorod resurslariga qaramligi va mavjud infratuzilmaning eskirganligi kabi omillar aniqlangan. Shu bilan birga, muqobil energiya manbalariga o‘tish, xalqaro tajribalarni joriy etish va “yashil” investitsiyalarni faollashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha milliy strategiyaning asosiy tamoyillari ham tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, uglevodorod resurslari, muqobil energiya, ekologik xavfsizlik, iqtisodiy islohotlar, energiyatalablik, chiqindisiz ishlab chiqarish.

Abstract: This article analyzes the necessity of transitioning to a green economy in Uzbekistan within the context of global and national environmental challenges. The main goal of a green economy is presented as achieving sustainable development through environmental protection, efficient use of natural resources, increased economic productivity, and the promotion of social justice. The research identifies Uzbekistan’s high energy dependency, reliance on hydrocarbon resources, and outdated energy infrastructure as key obstacles. The paper also provides recommendations for expanding renewable energy sources, applying international best practices, and stimulating green investments. Furthermore, the national strategy’s core principles for green economic transformation are examined.

Key words: green economy, sustainable development, hydrocarbon resources, renewable energy, environmental security, economic reforms, energy intensity, zero-waste production.

Аннотация: В данной статье анализируется необходимость перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане на фоне глобальных и национальных экологических вызовов. Основная цель зеленой экономики представлена как достижение устойчивого развития через охрану окружающей среды, рациональное использование природных ресурсов, повышение экономической эффективности и обеспечение социальной справедливости. В исследовании выявлены такие факторы, как высокая энергоёмкость энергетического сектора Узбекистана, зависимость от углеводородных ресурсов и устаревшая инфраструктура. Также разработаны предложения по расширению использования возобновляемых источников энергии, внедрению международного опыта и активизации «зеленых» инвестиций. В статье рассмотрены основные принципы национальной стратегии перехода к «зеленой экономике».

Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, углеводородные ресурсы, возобновляемая энергия, экологическая безопасность, экономические реформы, энергоёмкость, безотходное производство.

KIRISH

So‘nggi yillarda ekologik muammolarning keskinlashuvi, iqlim o‘zgarishlari, tabiiy resurslarning cheklangani va chiqindilar hajmining ortishi global miqyosda yangi iqtisodiy yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi jahon miqyosida barqaror rivojlanishga erishishning muhim vositasi sifatida ko‘rilmog‘da. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2012-yilda bo‘lib o‘tgan “Rio+20” konferensiyasida yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish va qashshoqlikka barham berishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu yo‘nalishda tizimli ishlar olib borilmoqda. 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasining tasdiqlanishi, muqobil energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarning amalga oshirilayotgani bu boradagi islohotlarning amaliy ifodasidir. Shu



bilan birga, mamlakatimiz hali-hanuz energiyaga yuqori talabchan iqtisodiyotga ega bo'lib, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarida uglevodorod yoqilg'ilariga bog'liqlik saqlanib qolmoqda.

Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati, mavjud infratuzilma va resurslar, muqobil energiya manbalari salohiyati hamda iqtisodiy va ekologik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy tamoyillari va strategik yo'nalishlarini aniqlash, mavjud muammolarni baholash hamda ularni bartaraf etishga doir ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur tadqiqot natijalari nafaqat O'zbekiston, balki boshqa rivojlanayotgan davlatlar uchun ham ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirish yo'lida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni kompleks tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Mamlakatda qabul qilingan strategik hujjatlar, xususan, 2019–2030-yillarga mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi, xalqaro tashkilotlar (BMT, UNEP, Osiyo Taraqqiyot Banki) hisobotlari, shuningdek, Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida deskriptiv va statistik tahlil usullari qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston iqtisodiyotining energiyatalablik va karbonat chiqindilariga bog'liqlik darajasi xorijiy mamlakatlar bilan taqqoslandi.

Tadqiqot davomida 2010–2022-yillar davomidagi iqtisodiy-energetik ko'rsatkichlar o'rganilib, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish imkoniyatlarini baholashga harakat qilindi. Normativ-huquqiy tahlil orqali milliy qonunchilikdagi yashil iqtisodiyotga oid me'yoriy asoslar tahlil qilinib, muqobil energiya manbalarini joriy etish istiqbollari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda va uning turli mintaqalarida barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot" eng samarali yo'llardan biri sifatida ko'riladi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Barqaror rivojlanish yo'li – bashariyat uchun yagona to'g'ri yo'l" [1].

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni har bir mamlakat va uning mintaqalari uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda kechadi. Shu sababli, o'tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag'batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish zarur. Agar milliy darajada qo'llanadigan rag'batlantiruvchi omillar, jumladan, investitsiyalar va davlat xaridlari "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishga yo'naltirilsa, iqtisodiy tizimni "yashillashtirish" jarayoni yanada faollashadi [2].

Aksariyat davlatlar "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasini amalga oshirishda aniq maqsad va vazifalarni belgilashadi. Shu nuqtai nazardan, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda maqsad nimadan iborat? BMTning Yevropa Iqtisodiyoti Qo'mitasi mutaxassislariga ko'ra, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning asosiy maqsadi – iqtisodiyotning turli tarmoqlari va ijtimoiy sohada "yashil investitsiyalar"ni yo'naltirishga ko'maklashishdir. Ushbu investitsiyalar mintaqalarda tabiiy kapital va ekotizimlardan samarali foydalanishga, shuningdek, ularning tugab qolishi yoki degradatsiyasi xavfi tug'ilganda muqobil resurslar bilan almashtirish imkoniyatini yaratishga yordam beradi. Bu investitsiyalar ijtimoiy adolatni ta'minlash va aholi uchun munosib ish o'rinlari yaratishni ham ko'zda tutadi.

"Yashil iqtisodiyot"ning vazifalari qatoriga atrof-muhitni muhofaza qilishni kuchaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ijtimoiy integratsiyani mustahkamlash va iqtisodiy taraqqiyotga erishish kiradi [3]. Mintaqalarning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish maqsadi va belgilangan strategik vazifalari ma'lum bir tamoyillarga asoslanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish tamoyillari shakllanishida mazkur mintaqada iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, uning rivojlanganlik darajasi, tarmoqlararo va hududlararo aloqalar xususiyatlari muhim rol o'ynaydi. "Yashil iqtisodiyot" tamoyillari "qo'ng'ir iqtisodiyot" tamoyillariga nisbatan keng qamrovli bo'lib, 1972-yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26 ta tamoyil ishlab chiqilgan [4].

Jahon amaliyotida "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning adolatlilik, barqarorlik, sog'lom sayyora, barcha uchun foydalanish imkoniyatining mavjudligi, moslashuvchanlik, avlodlar birdamligi, ishtirok etish, samaradorlik, oqilona boshqarish, shaffoflik va yetarlilik tamoyillari keng tarqalgan. Ushbu tamoyillar 2012-yilda UNEP Boshqaruv kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda 2019–2030-yillarda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi tasdiqlangan bo'lib, unda quyidagi tamoyillar belgilangan:

- Barqaror rivojlanishning global maqsadlariga milliy maqsad va vazifalarning muvofiqligini ta'minlash;
- Mavjud resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarishga erishish;
- Iqtisodiy hisob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritish;



- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun “yashil” vositalar va yondashuvlarni qo'llash ustuvorligi;

- Eng muhim tarmoqlarda raqobatbardoshlikni oshirish va ko'rsatkichlarni yaxshilash, “yashil” ish o'rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish;

- Resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash [5].

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish tamoyillari BMTning barqaror rivojlanish global maqsadlariga muvofiq, milliy va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

O'zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o'tishining obektiv zarurati shuki, bu yo'l mamlakatda va uning barcha mintaqalarida iqtisodiyotning barqaror o'sishini kafolatlaydi, atrof-muhitga zararlarni kamaytiradi va aholi hayot tarzini yaxshilaydi. “Yashil iqtisodiyot” iqtisodiy rivojlanishning shunday shaklikidirki, unda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o'zaro uzviy bog'langan holda, bir-birini taqozo etgan holda barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

Jahonning barcha mamlakatlari singari O'zbekiston Respublikasi ham iqtisodiyotining barqarorligini mustahkamlashga, milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida barqaror o'sishni ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan. Bu o'z navbatida katta iqtisodiy, moliyaviy, tabiiy, energetika va inson resurslarini talab qiladi. Ikkinchi tomondan, mamlakatda aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar soni hamda ularning daromadlari ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida katta hajmdagi energetika resurslariga talabni yuzaga keltiradi.

Yashil iqtisodiyotning muhim va asosiy shartlaridan biri – muqobil energiya manbalarini yaratish va uning atrof-muhitga zararsiz iste'molini tashkil etishdir. O'zbekiston bu borada katta potensialga ega mamlakat sanaladi.

Respublikada “yashil iqtisodiyot”ga o'tish zarurati yana shundan iboratki, mamlakatda energiya ishlab chiqarish deyarli to'liq uglevodorodlar (neft, tabiiy gaz, ko'mir)ga bog'liq holda amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda uglevodorod energetikasidan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 4,5 foizi yo'qotilmoqda. Xalqaro amaliyotga nisbatan mamlakat iqtisodiyoti energiyatalab va uglerodtalab iqtisodiyot sanaladi. Respublika YIMning energiyatalablik ko'rsatkichi bo'yicha dunyodagi yetakchi o'n davlatdan biri hisoblanadi.

O'zbekiston YIMning energiyatalablik darajasi bo'yicha Germaniya, Turkiya, Italiya va Ispaniya kabi davlatlardan ikki baravar yuqori, uglerodtalablik darajasi bo'yicha esa dunyo davlatlari o'rtacha ko'rsatkichidan 1,5 baravar yuqoridir.

Shu bilan birga, mamlakatdagi uglevodorodlar zahirasi yaqin o'n yillik istiqbolda tugashi ehtimoli yuqori bo'lib, bu yangi turdagi – muqobil energiya manbalaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Demak, O'zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o'tishda, avvalo, “yashil energetika”ni rivojlantirish zarurati yuzaga keladi. Chunki mamlakatda muqobil energetika tizimining shakllanishi boshqa tarmoqlarni ham shu yo'nalishga jalb qiladi va ularning bu yo'ldagi harakatini tezlashtiradi.

Mintaqalarda iqtisodiyot tarmoqlarini “yashil iqtisodiyot”ga o'tish zaruratining yana bir muhim jihati shundaki, mamlakatdagi energetika sanoati quvvatlarining qariyb 40 foizi jismonan eskirgan va ma'nan talabga javob bermaydi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, mamlakatdagi elektr energiyasi tarmoqlarining aksariyati 30 yil va undan ortiq muddat davomida foydalanilmoqda. Magistral va taqsimlash tarmoqlarining 66 foizi, 74 foiz podstansiyalar va 50 foiz transformator podstansiyalari 30 yildan ortiq foydalanilgan.

Bu holat, o'z navbatida, energiyaning uzatilishi va taqsimlanishidagi texnik yo'qotishlarning asosiy sababi bo'lib turibdi. 2010–2022-yillar davomida iste'molchilarning elektr energiyasiga bo'lgan talabi to'la qondirilmagan, ushbu yillarda elektr energiyasini ishlab chiqarish yillik o'rtacha 3,1 foizga o'sgan, xolos. 2020-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarilishi va iste'moli o'rtasidagi yetishmovchilik 15,5 foizga yetgan [8].

Bundan tashqari, energetika obyektlarining ish faoliyatini samaradorligini oshirish uchun ularni modernizatsiya qilish va qo'shimcha quvvatlar bilan jihozlash katta moliyaviy mablag'larni va iqtisodiy resurslarni talab qilmoqda.

Mamlakat va uning mintaqalarida “yashil iqtisodiyot”ga o'tish zaruratining yana bir muhim omili bu – atrof-muhitni muhofaza qilish masalasidir. Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan samaraliroq foydalanishni rag'batlantirib, chiqindilar va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish evaziga ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga nisbatan resurs iste'molini kamaytirishga yordam beradi.

Bu esa, tabiiy resurslardan foydalanishda ekotizimlarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash imkonini yaratadi.

Yashil iqtisodiyotning joriy qilinishi, qayta tiklanadigan energiya, barqaror qishloq xo'jaligi va ekoturizm kabi sohalarda yangi ish o'rinlari yaratish hamda iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish natijasida hududlarda barqaror rivojlanishga yordam beradi.

Bu esa, qashshoqlik va tengsizlikni kamaytirish, ijtimoiy va iqtisodiy adolatni va inklyuziyani rivojlantirishga xizmat qiladi.



Turli hisob-kitoblar va prognozlariga ko'ra, jahon tabiiy resurslaridan oqilona va samarali foydalanish kelgusi avlod uchun 2050-yilgacha har yili 2 trillion dollar iqtisodiy foyda olish imkonini yaratadi [6].

Bu davrda dunyo aholisi soni 28 foizga, aholi jon boshiga resurslardan foydalanish darajasi esa 71 foizga ortishi bashorat qilinmoqda. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha qat'iy choralar ishlab chiqilmasa, metallar, bioyoqilg'i, minerallar va boshqa resurslarning yillik iste'moli 85 milliard tonnadan 186 milliard tonnagacha ko'payishi mumkin.

Bu esa, hozirgi darajaga nisbatan sezilarli o'sishni anglatadi va atrof-muhit hamda insoniyat uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin [7].

Tabiiy resurslardan ortiqcha va samarasiz foydalanish ularning sezilarli darajada kamayishi hamda tarkibiy jihatdan yomonlashuviga olib kelmoqda, natijada dunyoda bir qator global va yirik mintaqaviy ekologik va ijtimoiy muammolar paydo bo'lmoqda. Masalan, suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, atmosfera havosining ifloslanishi kabi ekologik muammolar hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni kuchaytirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, dunyo miqyosida davlatlar va mamlakatlar ichida mintaqalar o'rtasidagi rivojlanishdagi nomutanosibliklarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishga sabab bo'lmoqda.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun iste'mol va ishlab chiqarishda yanada barqaror modellarni joriy etish zarur. Bunga qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish, energiya samaradorligini oshirish, barqaror qishloq va o'rmon xo'jaligi amaliyotlarini rag'batlantirish, chiqindilarni va ifloslanishni kamaytirish kabi qator strategiyalar kiradi.

Shuningdek, ushbu muammolarni hal qilish uchun xalqaro hamkorlik va muvofiqlashtirishni rivojlantirish muhimdir, chunki tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhitning buzilishi global echimlarni talab qiladigan global muammolardir.

Ba'zi tadqiqotlarga ko'ra, resurslarni tejaydigan amaliyotlarni joriy etish qisqa muddatda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning 3,7 foiz atrofida qisqarishiga olib kelishi mumkin. Buning sababi shundaki, resurslardan tejab-tergab foydalanishga o'tish yangi texnologiyalar va infratuzilmaga katta miqdorda sarmoya kiritishni talab qilishi mumkin, bu esa iqtisodiy ishlab chiqarish va bandlikni vaqtinchalik qisqartirishi ehtimoli mavjud.

Osiyo taraqqiyot banki mutaxassislarining fikriga ko'ra, O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishining oldini olish ishlari uchun ajratilayotgan mablag'lar yetarli emas [8]. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, respublika YIMining atigi 0,05 foizi ana shu maqsadlarga sarflanmoqda. Bu ko'rsatkich juda kam. Solishtirish uchun aytish mumkinki, 2020-yilda bu ko'rsatkich Germaniyada YIMning 1,8 foizini, Shveysariyada 3,0 foizini, Yaponiyada esa 4,1 foizini tashkil etgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki, yashil iqtisodiyotga o'tish bugungi taraqqiyotning dolzarb va obyektiv zaruriy jarayonidir. Bu – dunyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston oldida turgan dolzarb ekologik muammolarni hal qilish, mintaqalarda barqaror rivojlanishni ta'minlash va inson hayot sharoitlarini yaxshilashda, shuningdek, bugungi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik chaqiriqlarga javob beruvchi iqtisodiy samarali yo'ldir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning dolzarbligi va zarurligini quyidagilar bilan tavsiflash mumkin:

- mamlakat mintaqalarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning holati ushbu o'tishni taqozo etayotgani;
- atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslar degradatsiyasining salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida iqtisodiyotda texnologik yangilanishni amalga oshirish zarurligi;
- uglevodorod xomashyosidan va uning mahsulot qiymatidagi ulushidan qisqartirish asosida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, past uglerodli iqtisodiyotga o'tish orqali uglevodorodlarga qaramlikni kamaytirish dolzarbligi;
- tabiiy resurslarning cheklanganligi, resursta'lab ishlab chiqarishdan ilmga asoslangan ishlab chiqarishga o'tish zaruratining yuzaga kelgani;
- atrof-muhitmuhofazasi masalasining kuchayib borayotgani va ekologik muammolarning keskinlashayotgani.

Yuqorida sanab o'tilgan va boshqa omillar sababli, O'zbekiston va uning mintaqalarida yashil iqtisodiyotga asoslangan barqaror rivojlanish jarayonlariga o'tish kun tartibidagi dolzarb masala sanaladi. Buning uchun zudlik bilan hududlar va tarmoqlar bo'yicha yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyalarini ishlab chiqish va ularni joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston [matn] / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – 512 b.
2. Yashil iqtisodiyot: Darslik / A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiyev va boshq. – Toshkent: Universitet, 2020. – 262 b.
3. United Nations Economic Commission for Europe. What are the main purposes and the related objectives of green economy? <https://www.unece.org/sustainable-development/green-economy/what-are-the-main-purpose-and-the->



related-objectives-of-green-economy.html

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4477-sonli “2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019-y., 07/19/4477/3867-son; 03.12.2022-y., 07/22/436/1061-son.
5. Численность мирового населения к 2050 году составит 9,7 млрд человек // UzDaily.uz. – Ташкент, 2023.
6. Buriyev S., Maxkamova D., Sherimbetov V. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – Toshkent: TIAME, 2018. – 134 b.
7. Osiyo taraqqiyot banki. O'zbekiston: ma'lumot byulleteni / ADB. – Manila, 2022.
8. Hamidov O.X., Yavmutov D.Sh. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2024. – 16 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>